

Avaz Mansurov - serqirra ijodkor, ustoz, ma'rifatparvar...

Dilnur Shuxratjon qizi Karimova

O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalq suygan bastakor, san'at arbobi pedagog Avaz Mansurov ijodi fazilatlarini haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa madaniyati, san'at, bastakor, ustoz, Qizcha va tulki, Qo'rqinchli tush.

Avaz Mansurov is a great creator, teacher, enlightener...

Dilnur Shukhratjon kizi Karimova

National Pop Art Institute named after Botir Zakirov under State Conservatory of Uzbekistan

Abstract: This article discusses the merits of Avaz Mansurov's work, a popular composer, artist and pedagogue.

Keywords: Music culture, art, composer, teacher, Little girl and fox, Nightmare.

Uning chehrasi doim ochiq, musiqasi kulgu va quvonch hislarini uyg'otib, ko'ngillarga hushnudlik bag'ishlaydi. Jozibasi esa tinglagan barcha qalblarni o'ziga maftun etadi. U - jiddiy, va avvalo, o'ziga juda talabchadir. Mas'uliyat ila ish yurituvchi bu inson kasbdoshlari va shogirdlariga bo'lgan madaniyatli munosabati bilan o'rnak bo'la oladi. Bu xususiyatlarning barchasi, albatta, uning yaratgan asarlarida o'z ifodasini topgan. Mazkur fazilatlar egasi bo'lgan inson - taniqli kompozitor Avaz Mansurovdir.

O'zbekiston yoshlar mukofoti sovrindori, O'zbekiston davlat konservatoriyasi kompozitsiya va cholg'ulashtirish kafedrasini professori, kompozitor, Botir Zokirov nomidagi milliy estrada instituti rektori Avaz Maksudovich Mansurov o'zining shaxsiy uslubi bilan alohida ajralib turadilar. Kompozitor turli janrlarda, ayniqsa qo'shiqchilikda barakali ijod qilib kelmoqda. Mansurov Avaz Maqsudovich 1957-yil 2-noyabrda Qo'qon shahrida tug'ilgan.

Kompozitorning bolalik yillari teatr sahnasida hamda mashhur xonanda va sozandalarning musiqasi va she'riyat davralarida o'tdi. 1982-yilda M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining «kompozitsiya va cholg'ulashtirish» kafedrasini professor B.I.Zeydman sinfidan, 1986-yili assistenturani professor

F.M.Yanov-Yanovskiy rahbarligida bitirgan. Kompozitor A.Mansurov ish faoliyatini 1973-yilda Farg'ona viloyati musiqali drama teatrining orkestrida sozandalikdan boshladi.

Hozirgi vaqtda Avaz Mansurovning musiqa bastalash ishqini musiqa maktabida o'qib yurgan kezlari boshlandi. U birinchi ijodiy qadamini fortepiano uchun «Qizcha va tulki», «Qo'rqinchli tush» ertaklariga musiqa bastalashdan boshladi. Musiqa bilim yurtida o'qib yurgan paytlarida ham skripkachilar ansambli uchun «So'zsiz qo'shiq», fortepiano uchun «Tokkata-prelyudiya» va bir necha qo'shiqlari uning ijodiga bag'ishlangan maxsus mualliflik konsert dasturida jarangladi. Bu konsert A.Mansurov uchun sinov maktabi bo'lib xizmat qildi va uni katta san'at yo'liga choraladi.

Konservatoriyada besh yillik o'quv jarayonida turli janrlarda yuztadan ortiq asarlar yaratdi. «Simfonik poema», «forteplano uchun 6-ta prelyudiya», «muhabbat» nomli ovoz uchun lirik turkum, «Ilonshox va uning amaldori ari haqida» nomli xalq cholg'ulari orkestri uchun musiqiy ertak, uvertyura, fantaziyalar, forteplano va orkestr uchun konsert, diplom ishi sifatida yozilgan birinchi simfoniya shular jumlasidandir.

1981-1983 yillarda o'qish bilan bir qatorda Respublika o'quvchilar saroyi qoshidagi bolalar musiqa maktabida ishladi. 1982-yili konservatoriyada o'qishni bitirgach kompozitsiya va cholg'ulashtirish kafedrasida pedagog lavozimida va assistenturada qoldirildi. Mazkur kafedrada 1990-1993 yillari katta o'qituvchi, 1993-yildan dotsent, 1993-1998 yillarida «Sharq fakulteti» dekani, 1998-yildan «kompozitsiya va cholg'ulashtirish kafedra»si mudiri, 2000-2010 yillarda konservatoriya o'quv ishlari bo'yicha prorektor, professor, 2011-2021 yildan «kompozitsiya va cholg'ulashtirish kafedra»si professori. 2022-yildan «Botir Zokirov» nomidagi milliy estrada institutining rektori lavozimida ishlamoqdalar.

Kompozitor Avaz Mansurovning ijodiy faoliyati haqida gapiradigan bo'lsak, bolalar uchun yozilgan musiqa uning asosini tashkil etadi. Mazkur yo'nalishda yozilgan ko'pgina asarlari buning yaqqol dalilidir. Ijodkorning o'zi esa: «bolalar musqasi mening xobbiyim», - deydi.⁷

Ma'lumki, musiqa ijodiyotining ushbu sohasi ikki turdan iboratdir: bolalar jamoasi bilan ijro etiladigan, hamda professional «kattalar» jamoasi uchun mo'ljallangan musiqiy namunalar. Avaz Mansurov bolalar musiqasining har ikkala ko'rinishida sermaxsul ijod qiladi. Kompozitor «qalamining» asosiy qirrasini o'ziga xos fikr bayonining aniqligi va teranligi bilan ajralib turadi. Ijodkor musiqiy tilini murakkablashtirmagan holda ortiqcha bezamaydi. Kompozitor uslubining originalligi aynan shunda namoyon bo'lib, ijodkor tilining barchaga tushunarli bo'lganligi - uning yutug'i sifatida gavdalanadi.

⁷ Sh.Ganixanova. Avaz Mansurov. – T., 2008. 125 b.

Avaz Mansurov qalamining betakrorligini, milliylik xususiyatlari bilan sug'orilganligini g'arb va sharq an'alarining o'zaro uyg'unlashuvida ko'ramiz. Yevropa maktabidan dramaturgik rivoj va shakl tuzilish omillarini olgan bo'lsa, milliy an'alardan esa meditatsiya, mavzu materialining rivoj usullari bilan singdirgan.

O'zbek xalq musiqasining milliy an'alarini saqlab, XX asr Kompozitorlik texnikasini o'zida mujassamlashtira olgan uslubi professional o'zbek musiqasi rivojlanishi yo'lida yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ohangining milliyliги mavzular xarakterida namoyon bo'ladi (melizmatika, kelgusi rivojiga o'ziga xos bosqich (trampin) yasovchi ladning ikkinchi pog'onasiga tayanch, musiqaning «eonali» tamoyili va h.k.).

Ijodkor simfonik janrlarda ham qalamini charxlab boradi. Buning mahsuli esa «Vals» va «O'zbek raqsi» nomli estrada-simfonik orkestri uchun ikkita pyesa, skripkalar, violonchellar va simfonik orkestr uchun «Bayram uvertyurasi», «Progress» uvertyura-fantaziyasi, «Qaxramonlarga haykal o'rnatamiz» nomli simfonik asari.

1987-1990 yillar simfonik janrdagi ijodiy izlanishlar natijasida ikkinchi simfoniya yaratildi. Mazkur davrgacha kompozitorning shaxsiy uslubi, musiqiy tili va amaliy musiqa yaratish texnologiyasi shakllandi. Ketma - ket uchta myuzikl yuzaga keldi: Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatri uchun «Kachal polvon va Garmsel», Respublika qo'g'irchoq teatri uchun «Ur to'qmoq», «Mag'rib afsungarlari uzugi» nomli musiqali yangi yil ertagi va bolalar uchun «Hayvonlar sultoni» operasini yaratadi.

Kompozitor A.Mansurovning ijodiy faoliyatida kamer vokal janrlar ustunlik qiladi. Uning ovoz, skripka va fortepiano uchun yozgan «Muhabbat» lirik turkumi, 10 dan ortiq romanslari musiqiy jamoatchilik tomonidan yuqori baholandi.

Kompozitorlik ijodiyotining ushbu sohasiga Avaz Mansurov ijodiy yetuklik davrida murojaat etdi. Bu sohada u 20 ga yaqin asar yaratib, ulardan bir qismi xalq cholg'ulari ansambli uchun mo'ljallangan. Jumladan: 2 ta alt va fortepiano uchun 2 ta pyesa; «Fortepiano uchun 7 ta pyesa»; «Koreys ohanglari asosida musiqa»; torli kvartet uchun «Poema»; skripkachilar ansambli va fortepiano uchun «Rondo - Vals»; xalq cholg'ulari kamer orkestr uchun «Uvertyura» or.59; romanslar or.62, or.63; «Hayvonot bog'iga sayr» nomli fortepiano uchun turkum; xalq cholg'ulari orkestr uchun «Moziydan sado» poemasi, «Sug'diyona», «Yurtim jamoli», «Qo'shiq va raqs».

«Qo'shiq va raqs» ning asosida turkman xalq kuylari yotadi, «Yurtim jamoli» uzbek folklori ohanglari bilan sug'orilgan, «Sug'diyona» - mazkur orkestr sozandalarining ijro etish xususiyatlarini nazarda tutgan holda partitura yaratildi.

Kompozitorlik ijodiyotining aynan kamer musiqasiga xos bo'lgan individual sirli xususiyat ijodkorning ichki dunyosiga nazar tashlash imkoniyatini beradi.

Kompozitor A.Mansurovning ijodiy faoliyatida teatr-sahna asarlarga musiqa bastalash ham ustuvor turadi. U yillar davomida bolalar operalarini, baletlarini, 20 ta musiqali spektakllar, myuzikllarini, spektakllarini, musiqali ertaklarini, musiqali komediyalarini yaratdi.

XXI asr boshida A.Mansurov ijodi turli janrdagi asarlar bilan boyidi. Bu davrda «Sog'diyona» xalq cholg'u ansambli uchun yozilgan shu nomli fantaziyasi alohida o'rin egallaydi (bu asarni kompozitor ansambl rahbari va dirijyori Feruza Abdurahimovaga bag'ishlagan). Shu bilan birga A.Mansurov «Moziydan sado», «Yurtim jamoli», «Qo'shiq va raqs» kabi poema fantaziyalar, «Zumrad va qimmat» baleti (Y.U.Ismatova librettosi), va amaliy musiqa janrlarda to'rtta asar yaratadi.

Ijodkor faoliyatining doirasi nihoyatda keng. Kompozitor, pedagog, ma'rifatparvar bo'lgan bu inson O'zbekiston davlat konservatoriyasining o'quv ishlari bo'yicha prorektor, O'zbekiston kompozitorlari uyushmasining raisi o'rinbosari va O'zBU boshqaruv a'zosi lavozimlarida faoliyat yuritib kelganlar, Respublikamiz ijtimoiy hayotida faol ishtirok etadi. («Sog'lom avlod uchun» gazeta taxririya a'zosi, xalq deputatligiga nomzodi qo'yilgan, ko'rik - tanlovlar, festivallar kabi turli tadbirlarning hay'at a'zosi). Avaz Maqsudovich Mansurovning sermaxsul va barakali ijodi ijodiy va pedagogik maqolalarida, o'quv qo'llanmalarida, esselarida o'z aksini topgan.

Kompozitorning bugun yetishgan yutuqlari uzoq vaqt davomida qilgan mashaqqatli mehnatlari va ijodiy izlanishlarining samarasidir. Serqirra kompozitor musiqa san'atining barcha janrlarida unumli ijod qilib, o'z asarlari bilan mustaqil respublikamizning musiqa madaniyatini rivojlanishiga samarali hissa qo'shib kelmoqda.

Avaz Mansurov hamisha voqealar markazida bo'lib, jamoat ishlarida faol qatnashadi, yosh iqtidorlarni tarbiyalaydi, epistolyar janrlarda izlanishlar olib boradi va shunday zich ish tartibiga qaramay, ajoyib musiqiy asarlar yaratadi.

A.Mansurov ko'p janrlarda ijod qiladi, asarlari tahlil etilganida esa zamonaviy mavzularga ko'p murojaat qilishi ayon bo'ladi. Kompozitor ijodiy jarayonida nafaqat zamonaviy mavzular, balki zamonaviy ifodaviy vositalar borasida ham izlanishlar olib borishi diqqatga sazovordir. A.Mansurov musiqasining asosi, uning kuy-ohang tabiati xalq milliy qo'shiqchiligi bilan uzviy bog'liq.

Iqtidorli kompozitor, talabchan rahbar, malakali murabbiy va mehribon ustoz Avaz Maqsudovich Mansurovni Respublikamizda musiqa san'atini rivojlantirishdagi faol xizmatlari taxsinga loyiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Ganixanova. Avaz Mansurov. – T., 2008. 125 b.